

**BADIIY MATN — INTERAKTIV O'QISH MAYDONI SIFATIDA:  
LINGVODIDAKTIK YONDASHUVLAR TAHLILI**

**Tursunov Xusanboy Burgutovich**

*Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti dotsenti,  
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada badiiy matn interaktiv o'qish maydoni sifatida tahlil qilinadi hamda uning lingvodidaktik imkoniyatlari yoritiladi. Shuningdek, badiiy matnlar asosida til o'qitishda qo'llaniladigan asosiy metodik yondashuvlar — dialogik o'qish, konstruksionistik yondashuv va ko'p darajali tahlil kabi usullar ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Ushbu yondashuvlar talabalarning til o'rganish jarayonini yanada samarali, mazmunli va qiziqarli qilishga xizmat qiladi.*

**Kalit so'zlar:** *lingvodidaktik vositalar, interdiskursiv yondashuv, badiiy matnlar, alliteratsiya, sintaktik xususiyatlar, o'xshatish va metafora, allegorik va metaforik so'zlar, kreativ yondashuv, emotsional reaksiyalar*

**LITERARY TEXT AS AN INTERACTIVE READING SPACE: AN ANALYSIS OF  
LINGUODIDACTIC APPROACHES**

**Tursunov Xusanboy Burgutovich**

*Associate Professor at Namangan State Institut of Foreign Languages named after  
Ishoqxon Ibrat, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences*

**Annotation:** *This article analyzes the literary text as an interactive reading space and highlights its linguodidactic potential. It also provides a scientific justification for the main methodological approaches used in language teaching based on literary texts, such as dialogic reading, the constructionist approach, and multi-level analysis. These approaches contribute to making the language learning process more effective, meaningful, and engaging for students.*

**Keywords:** *linguodidactic tools, interdiscursive approach, literary texts, alliteration, syntactic features, simile and metaphor, allegorical and metaphorical expressions, creative approach, emotional responses*

**KIRISH**

Zamonaviy til o'qitish metodikasida badiiy matnlardan foydalanish muhim lingvodidaktik vositalardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Ayniqsa, chet tilini o'rgatishda badiiy matnlar nafaqat til birliklarini o'zlashtirish, balki talabalarning kommunikativ, kognitiv va madaniy kompetensiyalarini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. An'anaviy darslik matnlaridan farqli o'laroq, badiiy matnlar tabiiy til muhitini aks ettiradi, real hayotiy vaziyatlarni ifodalaydi hamda o'quvchini faol

fikrlashga undaydi. Bugungi kunda til o'rgatish jarayonida interaktiv va kommunikativ yondashuvlar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan, badiiy matnni o'qish jarayoni passiv qabul qilish emas, balki talaba va matn o'rtasidagi faol o'zaro ta'sir sifatida qaraladi. Badiiy matn o'zining ko'p ma'noliligi, obrazlilik va talqin qilish imkoniyatlari bilan o'quvchini mustaqil fikrlashga, o'z munosabatini bildirishga va matn mazmunini qayta yaratishga undaydi. Natijada o'qish jarayoni interaktiv tus olib, talaba bilimni tayyor holda emas, balki faol ishtirok orqali egallaydi.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Adabiyotshunos olimlar Calafato va Paranning ta'kidlashicha, adabiyot chet tilni o'rganishda "haqiqiylik manbai" sifatida xizmat qiladi. Bu, o'z navbatida, quyidagi jihatlarni anglatadi:

1. Haqiqiylik (authenticité) mezoni va uning o'rni: Badiiy matnlar sun'iy emas, ya'ni ular maxsus o'rgatish uchun yaratilmagan, balki madaniy va ijtimoiy hayotdan olingan tabiiy til namunalari hisoblanadi. Ular hayotiylikni, tabiiy muloqotni aks ettiradi, bu esa talabalarni real til muhitiga yaqinlashtiradi. Bu badiiy matnlarning darslikdagi matnlardan farqini ochib beradi: darslik matnlari ko'pincha soddalashtirilgan, maqsadli til shakllarini o'rgatishga yo'naltirilgan bo'lsa, badiiy matnlar esa haqiqiy tilning murakkab va rang-barang ko'rinishini beradi.

2. Til o'rganishga motivatsiyani kuchaytirish:

Adabiyotdan foydalanish orqali talabalar qiziqarli mavzular bilan tanishadilar. Adabiyot orqali insoniy munosabatlar, ruhiy kechinmalar, ijtimoiy muammolar va boshqa chuqur mavzular muhokama qilinadi. Bu esa talabalarning tilga nisbatan qiziqishini oshiradi, ularni o'rganishga undaydi. Shu bois Calafato va Paran shunday xulosa chiqaradilar: "Bu kabi o'ziga xos badiiy tajriba darsliklar orqali berilishi mumkin bo'lmagan o'quv motivatsiyasini yuzaga keltiradi."

3. Adabiyot orqali interaktiv muhit yaratish:

Badiiy matnlar orqali til o'rgatishda talabalar fikr almashadilar, bahslashadilar, tahlil qiladilar – bu esa o'rganilgan tilni faol qo'llashga olib keladi. O'qituvchi esa muammo markazli yondashuv asosida talabalarni tanqidiy fikrlashga undaydi.

Misol uchun, kichik bir hikoyani o'qib chiqib, talabalardan quyidagilar so'ralishi mumkin:

Belgilar nima uchun bunday yo'l tutdi? Agar siz o'sha holatda bo'lsangiz, nima qilardingiz? Bu hikoya qanday axloqiy saboq beradi?

Bu savollar talabalarning shaxsiy tafakkurini rivojlantiradi va haqiqiy muloqotni vujudga keltiradi. Shunday qilib, Calafato va Paran fikricha, adabiyot:

- Tilni tabiiy va real kontekstda o'rgatadi;
- Talabalarning til o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshiradi;
- Darsni jonlantiradi va tilni hayotiy vaziyatlarda qo'llashga yordam beradi.

Bu yondashuv bugungi kunda interaktiv, kommunikativ va madaniyatga asoslangan til o'rgatish metodlarining asosini tashkil etadi.<sup>1</sup>

### **NATIJALAR VA MUHOKAMA**

Fransuz tilshunos va adabiyotshunos olim Jean-Louis Picard ta'kidlaganidek, badiiy matnlar boshqa autentik matnlardan (masalan, funksional – e'lonlar, yo'riqnomalar yoki ommaviy axborot vositalaridagi maqolalar) farqli o'laroq, aniq bir "to'g'ri" ma'no bermaydi, balki bir nechta talqin qilish yo'llarini taklif etadi.

Badiiy matnlar — ochiq tizimdir. Ular talabani aktiv ishtirokchiga aylantiradi. Talaba matnni shunchaki o'qib chiqmaydi, balki uning ma'nosini yaratishda qatnashadi. Bu esa til o'rganish jarayonini ijodiy va refleksiv (fikrlovchi) jarayonga aylantiradi. Talabani tafakkurini faollashtiradi. Badiiy matnni o'qiyotgan talaba har doim "bu yerda muallif nima demoqchi?", "bu obraz nimani bildiradi?", "matnning yashirin mazmuni nima?" degan savollar bilan ishlaydi.

Bu o'z navbatida talabani tanqidiy tafakkurini, empatiyasini va tahliliy ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Chet tilni o'qitishda, xususan, badiiy matnlar orqali quyidagi yondashuvlar qo'llaniladi:

1. Dialogik o'qish (la lecture dialogique) :

O'qituvchi matnni talaba bilan suhbat tarzida o'rganadi. Har bir epizod, obraz yoki voqea ustida savol-javob yoki fikr almashish orqali tushuncha shakllantiriladi.

2. Konstruktsionistik yondashuv (approche de construction)

Talabalar badiiy matnning mazmunini qayta talqin qiladi;

O'z versiyasini yaratadi (masalan, boshqa yakun o'ylab topadi);

Obrazlardan birini zamonaviy kontekstda tasavvur qiladi;

Matn asosida rolik, drama yoki podkast tayyorlaydi.

3. Ko'p darajadagi tushunish (lecture à niveaux multiples)

Matn grammatik jihatdan tahlil qilinadi (leksika, so'z tuzilishi), keyin mazmuniy va madaniy darajada tahlil qilinadi. Har bir bosqich til va tafakkur o'rtasidagi bog'liqlikni mustahkamlaydi.

Badiiy matn — bu o'qitish vositasi emas, balki talaba va til o'rtasidagi ijodiy muloqot maydoni. U talabani fikrini shakllantiradi, his-tuyg'ulariga ta'sir qiladi va uni madaniyat bilan tanishtiradi. Aynan shu xususiyat uni funksional yoki axborotga oid matnlardan farq qiladi.<sup>2</sup>

Olimning 1986-yilda chop etilgan "O'qish – bu o'yin" nomli asarida u talabalarning badiiy matnlar bilan qanday o'zaro aloqaga kirishini o'rganadi. Picard fikriga ko'ra, badiiy matnni o'qish — bu faol jarayon bo'lib, unda talaba matn mazmunini passiv ravishda qabul qilmaydi, balki uning ma'nosini barpo etishda faol ishtirok etadi. U o'qishni "qurilish o'yini" sifatida talqin etadi, ya'ni har bir talaba o'zining tajribasi va sezgirligiga asoslanib matnni o'ziga xos tarzda talqin qiladi. Michel

<sup>1</sup> Calafato, Raees / Paran, Amos : Age as a factor in Russian EFL teacher attitudes towards literature in language education, Teaching and Teacher Education, no 79, 2019, p. 28-37.

<sup>2</sup> La lecture comme jeu : essai sur la littérature / Michel Picard. Livre. Picard, Michel (1931-....). Auteur. Edité par Minuit. Paris - 1986.

Picardning “La lecture comme jeu” asari adabiyot nazariyasida inqilobiy yondashuv hisoblanadi. U talabani shunchaki passiv qabul qiluvchi emas, balki matn bilan o‘yin o‘ynovchi faol ishtirokchi sifatida tasvirlaydi.

1. O‘qish jarayonidagi “Uch qiyofali talaba” :

Picard o‘qish jarayonida inson ongida bir vaqtning o‘zida uchta subyekt (shaxsiyat) paydo bo‘lishini aytadi. Bu o‘yinning ishtirokchilari:

Subyekt	Tavsifi	Funksiyasi
Le Liseur (Haqiqiy talaba)	Jismoniy shaxs	Kitobni qo‘liga ushlab turgan, stulda o‘tirgan, tashqi dunyo bilan aloqasini uzmagani inson. U “o‘yin” qoidalarini biladi.
Le Lu (O‘qilayotgan shaxs)	Ongsiz (behush) qatlam	Asar voqealariga hissiy berilgan, qahramonlar bilan birga qo‘rqadigan yoki quvonadigan, matnga butkul “sho‘ng‘igan” talaba.
Le Lectant (Tahliliy talaba)	Intellectual qatlam	Matnning tuzilishini, uslubini, muallifning hiylalarini kuzatuvchi masofadagi “strateg”. U o‘yinni nazorat qiladi.

2. O‘qish — bu o‘yin (“La lecture comme jeu”) :

Picard bu tushunchani mashhur kulturolog Yoxan Xeyzinganing “Homo Ludens” (O‘ynovchi inson) nazariyasiga tayanib tushuntiradi. O‘qish nega o‘yinga o‘xshaydi?

Erkinlik: O‘yin kabi o‘qish ham majburiy emas, u ixtiyoriy zavqlanish jarayoni. Alohida dunyo: Kitob ochilganda, talaba real vaqtdan chiqib, “o‘yin maydoni” ga (badiiy dunyoga) o‘tadi.

Qoidalar: Har bir janrning o‘z o‘yin qoidalari bor (masalan, detektivda qotilni topish, fantastikada g‘ayritabiiy narsalarga ishonish).

3. Dinamik muvozanat :

Picardning fikricha, yaxshi mutolaa — bu Le Lu (hissiyot) va Le Lectant (aql) o‘rtasidagi muvozanatdir.

Agar talaba faqat Le Lu bo‘lsa, u asarga asir bo‘ladi (masalan, serial ko‘rgandek faqat hissiyotga beriladi).

Agar u faqat Le Lectant bo‘lsa, u asardan zavq olmaydi, shunchaki sovuqqonlik bilan matnni “tekshiradi”.

O‘yin aynan shu ikki holat o‘rtasidagi almashinuvda (tebranishda) sodir bo‘ladi.

4. Estetik munosabat :

Muallif adabiyotni “illuziya” deb ataydi. Biz asardagi voqealarning yolg‘onligini bilsak-da (aql bilan), ularga chin dildan ishonamiz (hissiyot bilan). Bu “ongli ravishda ishonish” o‘yinning poydevoridir.

Nima uchun bu kitob muhim?

Ushbu asar adabiyot darslarida matnni shunchaki quruq tahlil qilishga qarshi chiqadi. U o‘qituvchilarga talabaning hissiyotlarini ham (L’effet de lecture) hisobga olish kerakligini o‘rgatadi.

Ushbu yondashuv xorijiy til sifatida adabiyot didaktikasiga kuchli ta'sir ko'rsatgan. Picard talabaning matnga shaxsiy yondashuvini targ'ib qiladi va o'qituvchilarni talabalarga badiiy matnlarni "egallash" va ular asosida o'z talqinlarini takomillashtirishga imkon beradigan mashg'ulotlarni yaratishga chaqiradi. Bu esa o'qish jarayonini yanada interaktiv va mazmunli qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Michel Picard badiiy matnni o'qishni dinamik jarayon deb hisoblaydi, bunda mazmun matn va talaba o'rtasidagi o'zaro ta'sir orqali birgalikda yaratiladi.

### **NATIHALAR TAHLILI**

Badiiy matnlar san'at va adabiyotning ajralmas qismi bo'lib, ular nafaqat estetik qiymatga, balki ta'lim va tarbiya jarayonida muhim rol o'ynaydi. Lingvodidaktika, ya'ni til o'rgatish pedagogikasi, badiiy matnlarni o'qitish va o'rganish jarayonida samarali vosita sifatida ishlatishning ahamiyatini ta'kidlaydi. Badiiy matnlar til o'rgatish jarayonida lingvistik, psixologik, madaniy va estetik jihatlardan ko'plab o'rgatish imkoniyatlarini taqdim etadi.

#### **1. Lingvodidaktik xususiyatlar:**

Badiiy matnlarning lingvodidaktik xususiyatlari bir nechta omillar bilan belgilanadi:

- Tilning o'rgatish vositasi sifatida: Badiiy matnlar tilni o'rganish jarayonida nutqning eng murakkab shakllarini va tilning rang-barang imkoniyatlarini namoyon etadi. Ular nafaqat grammatik va leksik jihatdan, balki stilistik jihatdan ham boy bo'lib, tilning har xil qatlamlarini o'rgatishda samarali vosita hisoblanadi. She'r, hikoya, roman va boshqa badiiy janrlar tilni o'rganish uchun turli nuqtai nazardan foydalidir. Masalan, she'riyatda ritm, alliteratsiya, metafora va boshqa stilistik vositalar til o'rganuvchilarning lingvistik malakalarini rivojlantirishga yordam beradi.

- Matnni tahlil qilish va semantik o'rganish: Badiiy matnlar murakkab semantik strukturalarga ega bo'lib, ularni tahlil qilish talabalarga matnning chuqur mazmunini anglash, kontekstni tushunish va ma'nolarni izohlashda yordam beradi. Bu jarayon tilni o'rganishda keng qamrovli yondashuvni ta'minlaydi.

- Lingvistik ko'nikmalarni rivojlantirish: Badiiy matnlar talabalarni nafaqat tilni to'g'ri qo'llashga, balki tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish ko'nikmalarini rivojlantirishga ham yordam beradi. Masalan, badiiy matnlarni o'qish orqali talabalar tilni aniq va lo'nda ifodalash, mavzuni to'liq yoritish, fikrni izchil ifodalash kabi ko'nikmalarga ega bo'ladilar.

- Til va madaniyatning uyg'unligi: Badiiy matnlar milliy va umumiy madaniyatni o'z ichiga olgan tilning o'rgatish vositasidir. Ular orqali talabalar faqat tilni o'rganib qolmay, balki o'z xalqining va boshqa xalqlarning madaniy qadriyatlarini, tarixiy tajribalari bilan tanishadilar. Badiiy matnlar o'zining madaniy qiymati bilan tilni o'rganish jarayonini boyitadi.

#### **2. O'quv materiali sifatida ahamiyati:**

Badiiy matnlarning o'quv materiali sifatida ahamiyati juda katta, chunki ular nafaqat tilni o'rganish, balki talabalarning umumiy dunyoqarashi, estetik va emotsional rivojlanishini ta'minlaydi. O'quv materialining sifatli bo'lishi, talabalarning badiiy matnlar bilan ishlashga bo'lgan qiziqishini oshiradi va o'zlashtirish samaradorligini yaxshilaydi.

- Badiiy matnlarning talabalarga ta'siri: Talabalarga badiiy matnlarni o'rganish orqali nafaqat til ko'nikmalarini oshirish, balki ular o'zlarining dunyoqarashlarini kengaytiradi. Badiiy matnlar talabalarda ijodkorlikni, tasavvur va xayolni rivojlantiradi. Shu bilan birga, badiiy matnlar talabalarning estetik didini shakllantiradi, ularga go'zallikni anglash va qadrlashni o'rgatadi.

- Badiiy matnlar va psixologik ta'sir: Badiiy matnlarning psixologik ahamiyati ham katta. Ular talabalarda emotsional reaksiyalarni keltirib chiqaradi, muayyan voqealar, obrazlar yoki tushunchalar orqali ruhiyatni ifodalaydi. Talabalarda empatiya hissini uyg'otadi va ularni insoniy munosabatlar, dunyoqarash va ma'naviy qadriyatlar haqida chuqur o'ylashga undaydi.

-Samarali ta'lim vositasi: Badiiy matnlar talabalarga murakkab tushunchalarni oddiy va tushunarli shaklda taqdim etish imkoniyatini beradi. Masalan, badiiy matnlar orqali tarixiy, falsafiy yoki ijtimoiy mavzularni o'rgatish osonlashadi. Ular muayyan mavzuni jonli va o'ziga jalb qiluvchi tarzda bayon etadi, shu bilan birga talabalarga kerakli bilimlarni berish imkonini yaratadi.

-Tillararo va madaniy aloqa: Badiiy matnlar orqali turli tillar va madaniyatlarni o'rganish imkoniyati yaratiladi. Badiiy matnlar talabalarni bir nechta til va madaniyatlarni tahlil qilishga, turli adabiyotlarni solishtirishga va tilning o'ziga xos xususiyatlarini anglashga undaydi.<sup>3</sup>

### 3. Badiiy matnlarni o'qitishda metodik yondashuvlar:

Badiiy matnlarni o'rganish va o'qitish jarayonida bir qancha metodik yondashuvlarni qo'llash mumkin:

a) Tahliliy yondashuv: Talabalar matnni tahlil qilish orqali uning tuzilishini, til va uslubiy xususiyatlarini o'rganadilar. Badiiy matnlarni chuqur tahlil qilish talabalarning analitik fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

b) Kreativ yondashuv: Talabalarga badiiy matnlar asosida o'z ijodiy ishlarini yaratishga imkon berish, ularni o'z fikrlarini mustaqil ravishda ifodalashga rag'batlantiradi. Bu yondashuv orqali talabalar o'z tasavvurlarini rivojlantiradilar.

c) Interfaol yondashuv: Talabalarning badiiy matn bilan faol aloqada bo'lishi, ularni o'zaro muhokama qilish, matndan turli xil ma'no va xulosalar chiqarish imkonini beradi. Bu, o'z navbatida, talabalarning fikrlash va nutqni takomillashtirish qobiliyatini oshiradi.<sup>4</sup>

Badiiy matnlar til o'rganish jarayonida nafaqat tilni o'rgatish vositasi sifatida, balki talabalarning umumiy rivojlanishi, dunyoqarashini takomillashtirishda ham

<sup>3</sup> В. В. Виноградов избранные труды. о языке художественной прозы. -s b -, и з д а т е л ь с т в о <и н а у к а> Москва 1980.

<sup>4</sup> Shuhrat S. Alimov (2015). Lingvodidaktika: nazariy asoslar va metodik yondashuvlar. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.

muhim ahamiyatga ega. Badiiy matnlarni lingvodidaktik yondashuvlar asosida o'qitish talabalarda til ko'nikmalarini rivojlantiradi, estetik va madaniy tafakkurini boyitadi, shuningdek, ularning emotsional va ruhiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Badiiy matnlar o'quv materiallari sifatida o'zining boy mazmuni, til va madaniyatga oid ahamiyati, shuningdek, ta'lim jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilishdagi roli bilan ajralib turadi.<sup>5</sup>

Badiiy matnlar - bu san'at va adabiyotda ifodalanuvchi, estetik qiymatga ega bo'lgan, xayol va tasavvurga asoslangan, shaxsiy yoki umumiy tajriba va fikrlar orqali inson ruhiyatini tasvirlaydigan matnlardir. Badiiy matnlarning turli xil turlari mavjud bo'lib, ularning har biri o'ziga xos lingvistik xususiyatlarga ega. Badiiy matnlarni tasniflashda, avvalo, ularning janrini (she'r, hikoya, roman, pyesa va boshqalar) inobatga olish kerak. Badiiy matn turlari o'rtasidagi lingvistik xususiyatlar o'zgarib turadi va matnning estetik, emotsional, va ma'naviy mazmunini shakllantiradi.<sup>6</sup>

1. Badiiy matnlar asosan quyidagi turlarga bo'linadi:

a) She'r — badiiy ifodaning eng qisqa va intensiv shakli bo'lib, unda ritm, musiqiylik va obrazlarning mazmuni ustuvor o'rin tutadi. She'rning lingvistik xususiyatlari quyidagicha:

-O'ziga xos leksika: She'rda ko'pincha badiiy, allegorik va metaforik so'zlar ishlatiladi. Odatda, she'rda o'xshatish, ta'bir, psixologik tasvirlar ishlatiladi.

-Grammatik xususiyatlar: She'rda ko'pincha grammatik strukturaviy o'zgarishlar (morfoloqik va sintaktik) uchraydi. Misol uchun, ko'plik va bitta shakllar o'rtasidagi farqni ko'rish mumkin.

-Ritm va metrikaga qiziqish: She'rda ritm, qofiya, metrika (she'rning o'lchami va hajmi) katta ahamiyatga ega.

-O'xshatish va metafora: She'rning asosiy xususiyatlaridan biri bu o'xshatish va metafora orqali tasvirni boyitishdir.

b) Hikoya (Proza) — Hikoya, roman, esse kabi prozaik matnlar badiiy adabiyotning eng keng tarqalgan janridir. Ushbu turdagi matnlarning lingvistik xususiyatlari quyidagicha:

-Narrativ tuzilma: Hikoya va romanlarda asosan vaqt davomida o'zgarib borayotgan voqealar, qahramonlar orasidagi muloqot va muammolar tasvirlanadi.

-Tashqi va ichki dialoglar: Prozaik matnlar ko'pincha ichki va tashqi dialoglar orqali syujetni rivojlantiradi.

-Sintaktik murakkablik: Prozaik matnlarda murakkab jumlar, so'z birikmalari, uzun iboralar, tushuntirishlar keng qo'llaniladi. Sintaktik tuzilish o'zgarishlar bilan boyitilgan bo'ladi.

-Obrazlilik: Garchi proza shakli she'rga qaraganda oddiyroq ko'rinsa ham, unda turli xil tasviriy vositalar (metafora, personifikatsiya, simvolizm) ishlatiladi.

<sup>5</sup>Кузнец М.Д., Скрбнев Ю.М. Стилистика английского языка / М.Д.Кузнец, Ю.М. Скрбнев. М., 1960. - С. 131-134. 85. Кузнецова Н.В. Методика обучения студентов

<sup>6</sup> Xudoyberganova, G. (2012). lingvodidaktika: nazariy va amaliy masalalar. Toshkent: "O'zbekiston"NMIU

c) Drama (Pyesa) — Drama yoki pyesa badiiy janr bo'lib, unda asosan sahnada ijro etiladigan dialoglar va monologlar orqali tasvirlanadigan voqealar, syujetlar, konfliktlar mavjud. Pyesaning lingvistik xususiyatlari:

- Dialogning muhim roli: Pyesalarda asosan dialoglar orqali syujet rivojlanadi. Har bir personajning nutqi ularning xususiyatlarini, ichki dunyosini, jamiyatdagi o'rnini aks ettiradi.

- Tashqi va ichki monologlar: Pyesalarda tashqi monologlar (personajlarning bir-biriga gaplari) va ichki monologlar (qahramonning o'z-o'ziga fikr bildirishlari) o'rtasidagi farq ko'rsatiladi.

- Vaqt va makonga bo'lgan ehtiyotkorlik: Pyesa asosan vaqt va muhitni aniqlab beradi. Har bir aktyorning harakati va turli sozlamalar (mavzu, makon) o'rinli va dramatik sharoitda ko'rsatiladi.

## 2. Badiiy Matnlarning Lingvistik Xususiyatlari

Badiiy matnlarning lingvistik xususiyatlari ularning tasviriy va estetik ta'sirini oshiradi. Quyidagi omillar badiiy matnlarning lingvistik xususiyatlariga ta'sir qiladi:

### a.) Obrazlilik va estetik asos

Badiiy matnlarda har qanday tasvir yoki obraz orqali talaba yoki tinglovchiga estetik zavq berish maqsad qilinadi. Shuning uchun badiiy matnlarning asosiy lingvistik xususiyatlaridan biri — bu obrazlarning to'liq, jonli va samarali taqdimoti. Masalan:

Metafora: "Yurakni ezuvchi tun", "ko'zdagi yulduzlar" kabi tasvirlar.

Personifikatsiya: "Boshimdagi fikrlar bir-birini izlayapti", "keldim, chunki yuragim meni chaqirdi" kabi ifodalar.

Simvolizm: Badiiy matnlarning asosiy maqsadi — uni talaba yoki tinglovchiga tashqi va ichki dunyoning ramzlari sifatida taqdim etishdir.<sup>7</sup>

### b) Sintaktik xususiyatlar

Badiiy matnlarda grammatik tuzilish ham o'ziga xosdir. Ular murakkab sintaktik konstruktsiyalarni o'z ichiga oladi:

-Murakkab jumlar: Badiiy matnlar ko'pincha uzun, murakkab jumlar bilan yoziladi, bu esa matnning ta'sirini kuchaytiradi.

-Chizmalı va syujetga mos keluvchi sintaktik tuzilmalar: Syujet va obrazlarni aks ettirish uchun sintaktik o'zgarishlar, so'z tartibi va interpunksiya usullari ishlatiladi.

-Anagramma, so'z o'ynash: Ko'plab badiiy matnlarda so'zlarning o'zgartirilishi va ularning murakkab shakllarini yaratish orqali matnning lingvistik qiziqarli xususiyatlari namoyon bo'ladi.

### c) Fonetik xususiyatlar

She'r va dramatik asarlarda fonetik xususiyatlar katta ahamiyatga ega. Badiiy matnlarda tovushlarni (qofiya, alliteratsiya) muvofiqlashtirish orqali talaba yoki tinglovchiga ritmik va musiqiy zavq beriladi. Masalan:

<sup>7</sup> Гальперин, И. Р. Стилистика английского языка. Учебник / И. Р. Гальперин. - 3-е изд. - М.: Высш. школа, 1981. - 334 с.

Qofiya: “Ko’rdim seni xayolga cho’ngan, / Yonimda quvonchni topgan” (qofiya orqali she’rning musiqiyligi oshadi).

Alliteratsiya: Qaro qoshing, qalam qoshing, Qiyiq qayrilma qoshing, qiz.

Qilur qatlama qasd qayrab — Qilich qotil qaroshing, qiz.

Qafasda qalb qushin qiynab, Qanot qoqmoqqa qo’ymaysan.

Qarab qo’ygil qiyo, Qalbmni qizdirsin quyoshing, qiz. (tovushning takrorlanishi orqali o’ziga xos fonetik ta’sir yaratiladi).

### 3. Badiiy matnlar va tilning ijtimoiy rolini tushunish :

Badiiy matnlar tilning ijtimoiy, madaniy va estetik rolini ifodalaydi. Badiiy asarlar tilni jamoatchilik uchun yaratadi, uni tushunish va qabul qilish jarayonida xalqning tili va madaniyati shakllanadi.

Til va madaniyat: Badiiy matnlar o’z jamiyatining tilini va madaniyatini aks ettiradi. Matndagi badiiy xususiyatlar talabanning estetik idrokini rivojlantiradi va tildan foydalanishning yangi shakllarini yaratadi. Badiiy matnlarning lingvistik xususiyatlari adabiyotshunoslikda, lingvistika, filologiya va madaniyatshunoslik sohalarida chuqur tadqiq qilinadi. Ular tilda nutq va ifodalashning yangi usullarini o’rganishga yordam beradi.<sup>8</sup>

### XULOSA

Til o’rgatishning interaktiv yondashuvi talabalarning avvalgi bilimlari bilan matndan olingan yangi ma’lumotlar o’rtasidagi o’zaro aloqani ta’minlaydi. Bu metodologiya, xususan fransuz tilida badiiy matnlarni o’qishni yengillashtirishni maqsad qiladi. Ushbu yondashuv orqali talabalar vizual belgilar, matn tuzilmasi, mavzu va asosiy g’oya kabi ishonchli tayanchlarga tayanib, matnni yaxshi tushunishga erishadilar. Bu metod ham o’qituvchi, ham talabalar o’rtasidagi hamkorlikni rag’batlantirib, talabani matnni faollik bilan o’rganadigan subyektga aylantiradi.

Fransuz tilini o’rgatishda o’qish loyihasini interdiskursiv yondashuv (bu bir masala yoki matnni bir nechta diskurs (ya’ni ijtimoiy-madaniy nutq tizimlari) kesishmasida tahlil qilish usuli) asosida amalga oshirish orqali talabalarning mantiqiy, tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish mumkin. Bu metodologiya topshiriqlar asosidagi yondashuv, badiiy va semiologik (belgilar tizimi asosidagi) yondashuv, loyiha asosida o’qitish kabi yondashuvlarni birlashtiradi. Shuningdek, matnlardagi turli nuqtai nazarlarni tan olish, matnlar orasidagi ko’p ovoqlikni tushunish, boshqacha fikrlovchi insonlarni qabul qilish ko’nikmalarini rivojlantiradi. Natijada talabalarning muloqot qilish, madaniyatlararo tushunish, ko’p tillilik va ko’p madaniyatlilik kompetensiyalari shakllanadi.

So’nggi tadqiqotlar natijasida til o’qitish metodikasi, psixolingvistika va kognitiv psixologiyaga tayangan o’quv vositalari ishlab chiqilgan.

Bu vositalar talabalarga chet til sifatida fransuz tilidagi matnlarni tushunishda yordam beradi: matnlar o’rtasidagi bog’liqlikni ko’rish, manbalarni aniqlash, muhim detallarni anglashni o’rgatadi. Ular ko’p hujjatli o’qish (lecture multidocument)

<sup>8</sup> Yo’ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. Toshkent, Fan - 2007

tushunchasini mustahkamlash hamda samarali o'qish strategiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Talabalarda o'qish kompetensiyalarini badiiy matnlar asosida rivojlantirish uchun interaktiv metodlar, interdiskursiv o'qish loyihalari va kognitiv fanlarga asoslangan o'quv vositalari juda muhim. Bu yondashuvlar matnni chuqur tushunish, tanqidiy fikrlashni rag'batlantirish va talabaning o'qishdagi faolligini oshirishga yordam beradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Calafato, Raees / Paran, Amos : Age as a factor in Russian EFL teacher attitudes towards literature in language education, *Teaching and Teacher Education*, no 79, 2019, p. 28-37.
2. La lecture comme jeu : essai sur la littérature / Michel Picard. Livre. Picard, Michel (1931-....). Auteur. Edité par Minuit. Paris - 1986.
3. В. В. Виноградов избранные труды. о языке художественной прозы. - s b -. и з д а т е л ь с т в о <и н а у к а> Москва 1980.
4. Shuhrat S. Alimov (2015). *Lingvodidaktika: nazariy asoslar va metodik yondashuvlar*. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
5. Кузнец М.Д., Скребнев Ю.М. Стилистика английского языка / М.Д.Кузнец, Ю.М. Скребнев. М., 1960. - С. 131-134. 85. Кузнецова Н.В. Методика обучения студентов
6. Xudoyberganova, G. (2012). *lingvodidaktika: nazariy va amaliy masalalar*. Toshkent: "O'zbekiston"NMIU
7. Гальперин, И. Р. Стилистика английского языка. Учебник / И. Р. Гальперин. - 3-е изд. - М.: Высш. школа, 1981. - 334 с.
8. Yo'ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. Toshkent, Fan - 2007